

NEGOTIORUM GESTIO INSTITUTI DOIRASIDA GESTOR MANFAATLARINI HIMOYA QILISH IMKONIYATLARI

Abduaxatova Guzal Utkirjonovna

Toshkent davlat yuridik universiteti 3-kurs talabasi

guzalutkirjonovna@gmail.com

Annotasiya. Ushbu maqola begona shaxsning manfaatlarini ko'zlab topshiriqsiz harakat qiluvchi shaxs(gestor)ning majburiyatlarini va shuningdek uning manfaatlarini himoya qilish haqida bo'lib, maqola doirasida "negotiorum gestio" instituti tarixi, begona shaxsning manfaatini ko'zlab topshiriqsiz harakat qilish tushunchasi va mazmunini, topshiriqsiz qilingan harakatlardan manfaatdor shaxsning majburiyatlari yuzasidan sohaga oid milliy va xorijiy olimlarning fikrlari va qarashlarini, O'zbekiston va Jahon tajribasi asosida tahlil qilamiz.

Kalit so'zlar: negotiorum gestio, actio negotiorum gestorum contraria, actio negotiorum gestorum directa, gestor, principal, begona shaxs manfaatini ko'zlab harakat qilish belgilari, shartnomaning yo'qligi, manfaatdor shaxsga xabardor qilish, Yevropa huquq tizimi, Anglo-amerika huquqiy tizimi, zarur xarajatlar va haqiqiy zarar.

OPPORTUNITIES TO PROTECT GESTOR'S INTERESTS WITHIN THE NEGOTIORUM GESTIO INSTITUTION

Abduakhatova Guzal Utkirjonovna

3rd year student of Tashkent State University of Law

guzalutkirjonovna@gmail.com

Abstract. This article is about protecting the obligations and interests of a person (gestor) who acts without a commission in the interests of a stranger. We will analyze the history of the "negotiorum gestio" institution, the concept and content of acting without a commission for the benefit of a stranger, the obligations of the person interested in the actions performed without the commission, the opinions and views of national and foreign scientists in the field, based on the experience of Uzbekistan and the world.

Key words: negotiorum gestio, actio negotiorum gestorum contraria, actio negotiorum gestorum directa, gestor, principal, signs of acting in the interest of a stranger, absence of a contract, notification to an interested person, European legal system, Anglo-American legal system, necessary costs and actual damages.

Inson hayotida shunday vaziyatlar yuz beradiki, ba'zi holatlarda bir shaxs boshqa bir shaxsning manfaati yo'lida undan hech bir vakolat olmagan holda, ma'lum harakatlarni amalga oshiradi. Bunday majburiyatlar qadimgi rim huquqi davridayoq mavjud bo'lib, "negotiorum gestio"-ya'ni topshiriqsiz begona ishlarni yuritish yoki begona ishlar haqida g'amxorlik sifatida talqin qilinadi. "Negotiorum gestio" rim terminiga "topshiriqsiz" so'zi rimlik yuristlar tomonidan emas, balki keying adabiyotlarda shartnomaning yo'qligini ta'kidlash uchun qo'shimcha qilingan. Mazkur holatga asos sifatida shartnoma ham, delikt ham hisoblanmaydigan bir tomonlama bitimlar yoki bir qancha faktlar olingan. Shuningdek, rimlik yuristlar bunday majburiyatlarga "shartnomadan kelib chiqadigan majburiyatlar" nomini berayotib, shunday amaliy xulosa qilganlar. Bunday holatlarda tomonlarning javobgarlik chegarasi va sharoitlari haqida vujudga keluvchi baxsli masalalar shunga mos keluvchi o'xshash shartnomalarga muvofiq ravishda hal qilinadi¹.

Tadqiqot natijalar

"Negotiorum gestio" institutini yevropa huquqiy tizimi bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, ushbu instituti fuqarolik huquqida uning doktrina, siyosiy va iqtisodiy asoslari aniq emasligi bilan ajralib turadi. Odat huquqi bo'yicha esa bu konsepsiya hatto mavjud bo'lmaganga o'xshaydi. Shunga qaramay, fuqarolik-huquqiy doktrinada bo'lgani kabi, yevropa odat huquqida bironing ishiga aralashishning ayrim holatlari aralashuvchi tomonning boshqa tomonga (topshiriqlarsiz harakatlardan manfaatdor shaxsga) yoki aksincha, da'volarni asoslash, belgilash sifatida tan olinadi. Ushbu holatlar rasmiy ravishda negotiorum gestio sifatida ko'rib chiqiladimi yo'qmi, izchil tizimni izlashga e'tibor bermaslik uchun usbu sohani amaliy ahamiyatini inkor etib bo'lmaydi.

¹ Sm. Novitskiy I.B. Rimskoe pravo,-M,:1994.S.209

Haligacha tushuntirishni kutayotgan eng dolzarb masalalardan biri shartnoma huquqi va negotiorum gestio(yoki uning umumiy huquqdagi ekvivalentlari)o'rtasida chegarani aniqlash masalasidir². Ya'ni yevropa huquqiy tizimida mavjud odat huquqi va negotiorum gestioni aniqlashda ularni bir biridan farqlashda ma'lum chalkashliklar mavjud. Shuningdek, Yevropa xususiy huquqi hozrda negotiorum gestio va begona shaxsning manfaatlarini ko'zlab topshiriqsiz harakat qilishni birlashtirsh jarayonidadir. Mana shu o'rinda Yevropa huquqiy tizimi va O'zbekiston milliy qonunchiligidagi ba'zi farqlarni ko'rishimiz mumkin. Yevropa huquq tizimi, yuqorida ta'kidlanganidek bu sohada milliy xususiy huquq tizimida tartibsizlik holatidadir. Negotiorum gestio va begona shaxs manfaatlarini ko'zlab topshiriqsiz harakat qilishning asoslari va ta'limotining tarixiy asoslari va ta'limoti rivojlanishi tez va har tomonlama uyg'unlashishga imkon beradigan darajada keskin farq qiladi.

Zamonaviy qonunlar –fuqarolik huquqi va umumiy(odat)huquqi shartnoma nazariyasi asoslari bo'yicha shartnomaning erkinligixususiy huquqning tamal toshi hisoblanadi. Tomonlar o'z shartnomalarining nafaqat mazmunini belgilashda, balki ularga rioya qilmaslik bo'yicha ham erkin bo'lishi kerak. Topshiriqsiz harakat qilishga kelsak, tegishli cheklov majburiy ko'rinadi :shartnomaning salbiy erkinligi majburiy bitimlarni istisno qilishni talab qiladi. Miliy qonunlar uchun bu negotiorum gestio va uning ekvivalenti hisoblangan begona shaxs manfaatlarini ko'zlab harakat qilsh doktrinasini keng chegaralanishini nazarda tutadi³.

Shu o'rinda Yevropa tajribasiga ko'ra shartnoma va negotiorum gestio o'rtasidagi chegarani yaxshiroq tushunish uchun biz genealogist(shajarashunos)ning tovon to'lash haqidagi da'vosini ko'rib

² The Doctrines of Contract and Negotiorum Gestio in European Private Law: Quest for Structure in a No Man's Land of Legal Reasoning, RESTITUTION LAW REVIEW (RLR) 2015, 73-91

³ The Doctrines of Contract and Negotiorum Gestio in European Private Law: Quest for Structure in a No Man's Land of Legal Reasoning, RESTITUTION LAW REVIEW (RLR) 2015, 73-91

chiqamiz. Geneologistlar yoki merosxo'r izlovchi hisoblangan-shajarashunoslar merosxo'rlari yo'qdek ko'rinadigan mulkka oluvchilarni topish uchun oilaviy munosabatlar va bog'lanishlarni(shajaralarni) aniqlashga ixtisoslashgan. Agar ma'lum bir muddat ichida merosxo'r o'zini identfikatsiya qilmasa, ko'p yuridiksiyalarda mulk davlat xazinasiga topshiriladi.

Bu masala bir qator Yevropa yurisdiksiyalarida jiddiy tahlil qilingan. Misol uchun, Germaniyada **Bundesgerichtshof**⁴ (**Federal Adliya sudi**) shartnomalarning ustuvorligiga asoslanib, negotiorum gestio nuqtai nazaridan genealogist uchun tovon to'lashni rad etdi. Biroq, boshqa Yevropa sudlari, xususan, **Avstriya** va **Fransiyada**⁵, genealogist aynan mana shu ta'limot bo'yicha tiklanishga loyiq ekanligini aniqladi. Bu tafovut shuni ko'rsatadiki, boshqa birovning ishlariga "ixtiyoriy" va "topshiriqsiz" aralashuv o'rtasidagi chegarani ajratish qiyin.

Endi esa "negotiorum gestio"ni Rim va zamonaviy **anglo-amerika huquqi** asosida tahlil qiladigan bo'lsak, birovning ishlariga uning topshirig'isiz aralashgan shaxs bunday aralashish natijasida yetqazilgan har qanday zarar uchun boshqa tomon(principial) oldida javobgar bo'ladi, lekin buning natijasida hech qanday huquqqa ega bo'lmaydi. Birovning ishiga uning topshirig'isiz aralashish **Vudvord**⁶ aytganidek, ma'sulyatli bo'lsa, ya'ni qonun bilan bo'lmasada, burch tuy'gusi talab etilsa, aralashuvchi(gestor) manfaatdor shaxs(principial)ga kerak bo'lgan foydani bersa kompensatsiya olish huquqiga ega bo'ladi. Ushbu negotiorum gestio doktrinasining vujudga kelishi qadimgi Rimdagi pretorlik farmoniga borib taqaladi. Unga ko'ra sudda bo'lmagan shaxslar o'rniga,do'stlari nomidan ish olib brogan tomonlarning huquqlari tartibga solingan. Vaqt o'tishi bilan ushbu farmon bilan yaratilgan huquq va

⁴ BGH NJW 2000, 72

⁵ See infra nn 121-124

⁶ WOODWARD, QUASI- CONTRACTS (1913) 309.

burchlar “begona shaxsning manfaatini ko’zlab, topshiriqsiz harakat qilishning” boshqa turlariga kengaytiriladi⁷.

Anglo-amerika huquqi bo’yicha gestor va principial “negotiorum gestio” natijalari bo’yicha o’z da’volarini amalga oshirish huquqiga ega bo’ladi. Manfaaddor shaxs(principial)ning to’g’ridan-to’g’ri amalga oshirgan da’volari – **actio negotiorum gestorum directa** deyilsa, gestorning qarshi da’volari sifatida-**actio negotiorum gestorum contra** amalga oshirishi mumkin. Shuningdek, negotiorum gestio atamasi ba’zan tor, ba’zan esa kengroq ma’noda qo’llaniladi. Tor ma’noda bu gestor o’z xarajatlarini qoplash huquqini beradigan boshqa birovning ishlarini ixtiyoriy boshqarishni anglatadi.

Negotiorum gestio talablari tor ma’noda Rim huquqida quyidagi belgilari mavjud:

- a) topshiriqning, boshqa ko’rsatma yoki manfaaddor shaxsning oldindan va’da qilingan roziligining yo’qligi
- b) shaxsga yoki mulkiy manfaaddor shaxsga yetqazilgan zararni bartaraf qilish, uning majburiyatlarini yoki huquqqa hilof bo’lmagan boshqa manfaatlarini bajarish masalasida amalga oshirilgan harakatlar:
- v) muqarrar foydadan, manfaaddor shaxsning haqiqiy yoki ehtimoliy maqsadlaridan kelib chiqib amalga oshirilgan harakatlar:
- g) begona shaxsning manfaatini ko’zlab topshiriqsiz harakat qilayotgan shaxs ixtiyotkorlik va “g’amxo’rlik” bilan iish holatlari bo’yicha zaruriyt bilan harakat qiladi⁸.

Aynan ushbu fikrlar Svalova N.A. tomonidan ham ta’kidlangan bo’lib quyidagi xulosaga kelish mumkin. Topshiriqsiz begona shaxsning manfaatini ko’zlab qilinadigan harakatlar, nafaqat to’g’ridan to’g’ri topshiriqning, balki

⁷ THE NEGOTIORUM GESTIO IN ROMAN AND MODERN CIVIL LAW ERNEST G. LORENZEN*
Professor of Law, Yale University School of Law

⁸ Sm.Svalova

manfaatdor shaxsning ko'rsatmalarisiz amalga oshiriladi. Bunday hollarda ko'pincha principal gestorning uning manfaatlari yo'lida harakat qilayotganini ham bilmaydi⁹. Agar ushbu punktlardan birortasi mavjud bo'lsa, bu haraktlar ular vositachilik qilayotgan shartnoma qoidalariga tadbiq etilishi lozim. (topshiriq, pudrat, omonat, xizmat ko'rsatish).

Ushbu huquqiy tizimga ko'ra amalga oshirilayotgan harakat har qanday faoliyat bo'lishi mumkin. Misol uchun uyni ta'mirlash kabi jismoniy harakatni bajarish, dori-darmon bilan ta'minlash yoki uni to'lovi kabi qonuniy qarzlariga kafil bo'lish va boshqalar.

Mamlakatimiz milliy qonunchiligini tahlil qiladigan bo'lsak ushbu huquq sohasi anglo-amerika huquqiy tizmi bilan juda o'xshashdir. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga ko'ra ushbu majburiyatning predmeti begona shxsning manfaatini ko'zlab harakat qilish hisoblanadi. Shuningdek ushbu harakatlar nafaqat mulkiy munosabatlarni, balki shaxsiy nomulkiy munosabatlarni, masalan, sog'liqqa, hayotga tahdidlarni bartaraf etish,shaxsiy daxlsizlikni ta'minlash va boshqalarni bevosita ifodalaydi. Begona shaxsning manfaatini ko'zlab harakat qilish manfaatdor shaxsning taxminiy yoki haqiqiy foydasi yoki aniq foydasidan kelib chiqib ishning zaruriy holatlari bo'yicha g'amxorlik va ixtiyotkorlik bilan amalga oshirilishi lozim.Shundan kelib chiqib aytish lozimki, shaxs bajarilgan majburiyatga mos keluvchi yoki erishilgan natijani sezilarli darajada avfzal biluvchi haddan tashqari harajatlar qilmasligi lozim.Mazkur harakatlar manfaatdor shaxsning o'zi tomonidan aynan shunday vaqtda yoki fuqarolik huquqiy munosabatlarning tezamkor, ixtiyoriy, oqilona, g'amxor ishtirokchisi sifatida qanday amalga oshirilishi kerak bo'lsa shunday amalga oshirilishi kerak.Shuni ham ta'kidlash lozimki, harakatni bajarishni to'g'ridan-to'g'ri nazarda tutilgan holatlar, o'zini-o'zi boshqarish organlari va

⁹ O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksiga sharh 2-jild:Professional sharxlar. T 2./O'zbekiston Respublikasi Adliya vzarligi.-Toshkent; Baktria press,2013. 912b

davlat organlari amalga oshiradigan holalar, misol uchun yong'inni o'chirish bilan bog'liq yong'in xafsizligi xodimlari, pensionerlarga pensiya yetqazish bo'yicha ijtimoiy muhofaza organlari mansabdor shaxslarini harakatlari ushbu majburiyat turiga kirmaydi.

Boshqa shaxs manfaatini ko'zlab topshiriqsiz harakat qilishning asosiy talablaridan biri bu manfaatdor shaxsni imkon tug'ilishi bilan o'z harakatlari haqida xabardor qilish hisoblanadi. Agar harakat qilayotgan shaxs harakatlari bilan o'z irodasini ifodalasa, manfaatdor shaxs o'z irodasini maqullash bilan ifodalaydi va shu maqullagan paytdan boshlab qonun bo'yicha tegishli shartnoma tuzilgan hisoblanadi. Agar yuridik harakterdagi xizmatlar ko'rsatilgan harakatlar bo'yicha, bitim tuzilgan, manfaatdor shaxsning majburiyati bajarilgan bo'lsa, tomonlar tasdiqlagandan keyin topshiriq shartnomasi tuzilgan hisoblanadi, agar harakat ma'lum bir ishlarni amalga oshirishda ifodalansa tomonlar pudrat shartnomasini tuzgan hisoblanadi; agar shaxsning harakatlari mol-mulkini saqlashda ifodalansa, manfaatdor shaxsning ma'qullashi omonat saqlash shartnomasi tuzilgani anglatadi. Manfaatdor shaxsning og'zaki ma'qullashi ham yetarli bo'ladi. Ushbu asoslar yuqorida tahlil qilingan anglo-amerika huquqidagi gestorga qo'yilgan asosiy talablarga mos keladi.

Fuqarolik Kodeksi 827-moddasida manfaatdor shaxs tomonidan uning manfaatlari yo'lida amalga oshirilgan harakatlarni maqullamaslik oqibatlari belgilangan bo'lib, unga ko'ra harakatlanayotgan shaxsga bu ma'lum bo'lganidan u darhol o'z harakatlarini to'xtatishi kerak, aks holda bajarilgan barcha harakatlar uning o'zida qoladi. Shuningdek, harakatlanayotgan shaxs, manfaatdor shaxsning maqullmaganiga qaramasdan biror bitim tuzadigan bo'lsa, bu bitim bo'yicha majburiyat uning o'zida qoladi.

Shu bilan birga fuqarolik huquqida mustasno holat sifatida, boshqa shaxsning manfaatlari yo'lida uning irodasiga qarshi harkatlarga ham yo'l qo'yilgan. Masalan, yosh bola yoki qariya, bemor shaxsni boqish majburiyati bo'lib lekin bu majburiyatni bajarmaganda ushbu shaxsning xohishiga qaramasdan bajariladi.

Begona shaxsni manfaatini ko'zlab bitim tuzishda esa majburiyatlar ikkita shart bo'lganda manfaatdor shaxsga o'tadi. Birinchida, agar bitim bu shaxs tomonidan tasdiqlangan bo'lsa. Misol uchun, bunday munosabatlar aksionerlik jamiyatini tashkil etishda ham tug'ilishi mumkin- odatda muassislar hali ro'yhatdan o'tguniga qadar ham jamiyat uchun muhim bitimlar tuzadi. Agar aksionerlarning umumiy yig'ilishi muassislar harakatlarini maqullagan holatda ular tomonidan amalga oshirilgan bitimning tomoni sifatida jamiyatning o'zi shakllanadi¹⁰. Ikkinchisi esa begona shaxs manfaatlarini ko'zlab uning manfaatlari yo'lida sodir etilgan shaxsga nafaqat u tomonidan bitimning maqullanish shartini, balki agar boshqa tomon bunday o'tishga qarshi bo'lmasa va bitimni tuzishda bitim bitim begona shaxsning manfaatlarini ko'zlab tuzilayotganligini bilgan yoki bilshi lozim bo'lsagina tuzilgan hisoblanadi.

Endi esa Negotiorum gestio institutida gestor manfaatlarini himoya qilish haqida tahlil qiladigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi 829-moddasidga ko'ra topshiriqsiz qilingan harakatlardan manfaatdor bo'lgan shaxsning majburiyatlari ushbu qilingan harakatlardan manfaatdor bo'lgan shaxs uning manfaatlarini ko'zlab ish olib brogan shaxsga zarur harajatlarni va boshqa shaxsning manfaatlari yo'lidagi aniq harakatlar aniq bo'lib biroq ko'zlangan natijaga erishilmagan hollarda ham saqlanib qoladi. Lekin boshqa shaxsning mol-mulkiga zarar yetqazishning oldi olingan hollarda o'rnini qoplash haqining miqdoridan oshmasligi lozim bo'ladi. Shuningdek, shaxsning

¹⁰ Комментарий части 1 ГК РФ для предпринимателей фонд "Правовой культуры", 1995.с. 212.

harakatlari boshqa shaxs manfaatlarini ta'minlashga bevosita qaratilgan bo'lmasa, ularni amalga oshirgan shaxs manfaatlarini ko'zlab harakat qilayapman deb xato o'ylagan va bu harakatlar boshqa shaxsning asossiz boyib ketishiga olib kelsa, shaxs haqiqiy zararni o'rnini qoplash bilan bir qatorda, tegishli miqdorda haq to'lashni ham talab qilishga haqli. Topshiriq olmasdan harakat qilgan shaxs manfaatlari ko'zlab harakat qilgan shaxs maqsadga muvofiq ravishda qilgan barcha harakatlari natijada mulkiy zararni oldini olmagan ham ko'rgan zararlarni to'lashni talab qilishga haqli bo'ladi.

Umumiy qilib aytganda, negotiorum gestio institutida gestor manfaatini himoya qilish asoslar yuqorida takidlab o'tilgan anglo-amerika huquq tizimida va O'zbekiston tajribasida ko'plab o'xshashliklar mavjud va ular umumiy asoslarga ega. Ushbu huquq tizmi bo'yicha gestorda ham principalda ham da'vo qilish huquqi mavjudligi mustahkamlangan. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi 829-moddasida ham manfaatdor shaxsning topshiriqsiz harakatlarni amalga oshirgan shaxsga zarur harajatlarni va boshqa haqiqiy zararni qoplash maburiyati keltirib o'tilgan. Shuningdek shaxsning harakatlari boshqa shaxs manfaatlarini ta'minlashga qaratilmasa va shaxs o'z manfaati yo'lida harakat qilayapman deb o'ylasa, va bu boshqa shaxsning asossiz boyishiga olib kelsa shaxs Fuqarolik kodeksining 58-bobiga asosan nafaqat zararni o'rnini qoplashni balki haq to'lashni ham talab qilishga haqli ekanligi belgilangan.

Adabiyotlar / References

1. <http://lex.uz/docs/-180552> O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (ikkinchi qism) 29.08.1996
2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksiga sharx 2-jild: Professional sharxlar. T /O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. -Toshkent; Baktria press,2013. 912b
3. The Doctrines of Contract and Negotiorum Gestio in European Private Law: Quest for Structure in a No Man's Land of Legal Reasoning, *RESTITUTION LAW REVIEW (RLR)* 2015, 73-91
4. WOODWARD, QUASI- CONTRACTS (1913) 309.
5. THE NEGOTIORUM GESTIO IN ROMAN AND MODERN CIVIL LAW ERNEST G. LORENZEN* Professor of Law, Yale University School of Law
7. Комментарий части 1 ГК РФ для предпринимателей фонд "Правовой культуры",1995.с. 212
8. Sm. Novitskiy I.B. Rimskoe pravo,-M,:1994.S.209
9. O'G'Li, A. A. M. (2022). KORPORATSIYA USTAV KAPITALI FUNKSIYALARI VA UNGA OID MILLIY QONUNCHILIK NORMALARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI. *Academic research in educational sciences*, 3(8), 109-113.
10. Azimjon, I. (2022). ZARAR-YURIDIK SHAXS ISHTIROKCHILARI VA BOSHQARUV ORGANLARI FUQAROLIK-HUQUQIY JAVOBGARLIGINING ZARURIY SHARTI SIFATIDA.
11. Ахроркулов, А. (2022). НОТИЖОРАТ ТАШКИЛОТЛАРИ ТЎҒРИСИДАГИ ҚОНУНЧИЛИКНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(6), 893-902.
12. Гулямов, С., & Ахроркулов, А. (2022). НОТИЖОРАТ ТАШКИЛОТЛАР ФАОЛИЯТИНИ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ: МИЛЛИЙ ВА ХОРИЖИЙ ТАЖРИБА. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(5), 1029-1041.